e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/qtvp9y06

NODIRABEGIMNING FORSIY "DEVON"I NASHRLARIDAGI MATNIY NUQSONLAR: TUSHIRIB QOLDIRISHLAR VA XATOLAR TAHLILI ("DEBOCHA" MISOLIDA)

Boʻriyev Islom Sobir oʻgʻli

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, kichik ilmiy xodim.
e-mail: islomb361@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0009-4328-5134

Annotatsiya.

Mohlaroyim Nodirabegim (1792–1842) Qoʻqon xonligi (1709–1876) adabiy muhitining yirik namoyandasi, taniqli shoira va davlat arbobidir. U oʻzbek adabiyotida asrlar osha avloddan avlodga oʻtib kelayotgan zullisonaynlik an'analarini davom ettirib, turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan hamda bu tillarda ikkita devon tuzgan. Shoiraning forsiy "Devon"i oʻz davrida va keyingi davrlarda keng tanilib, uning bir nechta qoʻlyozma nusxasi bugungi kungacha saqlanib qolgan. Hozirgacha mazkur asar tabdil qilinib, toʻrt marta nashr etilgan. Biroq nashrlarning birortasi ham toʻliq va mukammal emas, ularda koʻplab matniy nuqsonlar, jumlalarning tushirib qoldirilishi va soʻzlarning xato yozilishi kabi holatlar uchraydi. Mazkur maqolada nashrlar va qoʻlyozma nusxalar matnshunoslik nuqtayi nazaridan oʻzaro qiyoslanib, "Devon"ning "Debocha"si misolida matniy xatoliklar aniqlanadi va tuzatiladi.

Kalit soʻzlar: Nodirabegim, Qoʻqon xonligi, adabiy muhit, devon, debocha, fors tili, zullisonayn, qoʻlyozma, matnshunoslik, matniy nuqsonlar, tabdil.

ТЕКСТОВЫЕ ДЕФЕКТЫ В ИЗДАНИЯХ ПЕРСИДСКОГО «ДИВАНА» НАДИРАБЕГИМ: АНАЛИЗ ПРОПУСКОВ И ОШИБОК (В СЛУЧАЕ «ДИБАЧИ»)

Буриев Ислом Собир угли

Институт востоковедения Академии наук Республики Узбекистан, младший научный сотрудник.

Аннотация.

Мохларойим Нодирабегим (1792–1842) — одна из крупнейших представительниц литературной среды Кокандского ханства (1709–1876), известная поэтесса и государственный деятель. Продолжая многовековую традицию двуязычия в узбекской литературе, она создавала произведения на тюркском и персидском языках и составила на этих языках два дивана. Персидский «Диван» поэтессы получил широкую известность как в своё время, так и в последующие периоды, а несколько его рукописных списков сохранились до наших дней. К настоящему времени произведение было транслитерировано и издано четыре раза. Однако ни одно из этих изданий не является полным и совершенным: в них встречаются многочисленные текстологические недостатки, в том числе пропуски предложений и ошибочное написание слов. В статье публикации и рукописные списки сопоставляются с текстологической точки зрения, а на примере «Дебочи» «Дивана» выявляются и исправляются текстовые ошибки.

Ключевые слова: Нодирабегим, Кокандское ханство, литературная среда, диван, дебоча, персидский язык, двуязычие, рукопись, текстология, текстовые дефекты, транслитерация.

TEXTUAL DEFECTS IN THE EDITIONS OF NĀDIRABEGIM'S PERSIAN "DĪVĀN": AN ANALYSIS OF OMISSIONS AND ERRORS (IN THE CASE OF "DĪBĀCHA")

Boʻriyev Islom Sobir oʻgʻli

Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Junior Researcher.

Abstract.

Mohlaroyim Nodirabegim (1792–1842) was a prominent representative of the literary environment of the Kokand Khanate (1709–1876), a renowned poet, and a stateswoman. Continuing the centuries-old tradition of bilingual literary creativity in Uzbek literature, she composed works in both Turkic and Persian and compiled two divans in these languages. The poet's Persian *Divan* became widely known both during her lifetime and in later periods, and several manuscript copies have survived to the present day. To date, the work has been transliterated and published four times. However, none of these editions is complete or fully accurate, as they contain numerous textual deficiencies, including omitted sentences and incorrectly written words. This article compares the published editions with the manuscript copies from a textual-critical perspective and identifies and corrects textual errors using the *Debocha* (preface) of the *Divan* as a case

study.

Keywords: Nodirabegim, Kokand Khanate, literary environment, divan, debocha, Persian language, bilingualism, manuscript, textual criticism, textual defects, transliteration.

Kirish. Mohlaroyim Nodirabegim Rahmonqulibiy qizi (1792–1842) Qo‘qon xonligi adabiy muhitining yirik namoyandasi, taniqli o‘zbek shoirasi va ma’rifatparvar davlat arbobidir. U turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan, bu orqali o‘zbek adabiyotida asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan zullisonaynlik an’analarini davom ettirgan. Bugungacha shoiraning bu tillarda bitilgan she’rlardan iborat ikki devoni saqlanib qolgan. Bularning eng to‘liq va qimmatli nusxalari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar jamg‘armasida saqlanadi. Xususan, bu muassasaning asosiy fondida Nodirabegimning turkiy tildagi “Devon”ining ikki nusxasi mavjud [2: 194 var.; 3: 1a–154b]. Fors tilidagi “Devon”ning ham ikki nusxasi bor, biroq ularning ikkalasi ham nuqsonli [1: 132 var.; 4: 23 var.]. Shuningdek, institut qo‘lyozmalar fondida shoiraning ham o‘zbek, ham fors tilidagi she’rlari kiritilgan to‘rtta bayozning ham qo‘lyozma nusxalari saqlanadi [5: 239 var.; 6: 244 var.; 7: 100 var.; 8: 147 var.].

Nodirabegimning fors tilidagi “Devon”i Maknuna taxallusi bilan yozilgan bo‘lib, “Debocha” va asosiy qismdan iborat. “Debocha” “Devon”ga bizga noma’lum kotib tomonidan yozilgan muqaddima, ya’ni so‘zboshidir. Dastlab unda Xudoga hamd aytilib, Payg‘ambar alayhissalomga salovotlar yo‘llangan. So‘ng esa bu devonni tuzish sababi ko‘rsatilgan. Asosiy qism, bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma nusxalarga ko‘ra, 333 ta g‘azalni o‘z ichiga oladi [1: 1b–132b-var.]. Nodirabegimning fors tilidagi “Devon”ining tabdili hozirgacha 4 marta (1963-, 1967-, 1971- va 2004-yillarda) nashr qilingan [9: 621 b.; 10: 364 b.; 11: 488 b.; 12: 208 b.]. Biroq ularning hech biri to‘liq va mukammal emas. Mazkur nashrlarda juda ko‘p matniy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilgan: ayrim jumlalar tushirib qoldirilgan, boshqalari esa ma’no buziladigan darajada xato tabdil qilingan. Hajmning juda kattaligi sabab mazkur maqolada nashrlar va qo‘lyozmalarni matnshunoslik jihatidan solishtirgan holda “Devon”ning “Debocha” qismidagi matniy nuqsonlargina tahlil qilinadi hamda xatoliklar tuzatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekistonda Nodirabegimning forsiy “Devon”i uning adabiy merosi doirasida o‘rganilgan [13: B. 5–184]. Biroq shu paytgacha bu devonning nashrlari uning qo‘lyozmalari bilan solishtirilib, matniy tafovutlarni aniqlash va to‘g‘rilash bo‘yicha deyarli biror yirik ilmiy maqola yoki dissertatsiya yozilmagan. Asosan tadqiqotlar shoiraning turkiy tildagi “Devon”i bo‘yicha bo‘lib, ularda nashrlar va qo‘lyozmalar o‘zaro qiyoslanib, misra va bandlar darajasidagi matniy tafovutlar aniqlangan [14: B. 285–289; 15: B. 285–289].

Nodirabegimning forsiy “Devon”i qo‘shni Tojikiston Respublikasida yaxshi o‘rganilgan. Xususan, O. Saxibova, U. Karimovlar o‘zlarining 1989-yilda chop etilgan “Таджикская литература во второй половине XVIII и первой половине XIX вв.” asarlarida Nodirabegimning forsiy tildagi “Devon”iga maxsus to‘xtalib o‘tishgan. Lekin unda “Devon” ham, uning “Debocha” qismi ham manbashunoslik va matnshunoslik jihatidan tahlil qilinmagan [16: B. 3–238].

2008-yilda Xo‘jand milliy universitetida Dilorom Vahhobzoda “Источники и идейно-художественные особенности творчества таджикских поэтесс XIX века” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur ilmiy ishda XIX asrda Turkiston hududida fors tilida ijod qilgan shoiralar, jumladan, Nodirabegim–Maknunaning adabiy merosi o‘rganilgan. Biroq unda shoiraning forsiy “Devon”i nashrlari va qo‘lyozmalari matniy tomondan o‘zaro qiyoslanmagan [17: B. 3–23]. 2013-yilda esa Tojikiston Milliy universitetida Zebo Abdulazizova tomonidan himoya qilingan “Макнуна и её место в литературном круге Кокандского ханства (первая половина XIX века)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi Nodirabegimning o‘ziga, uning adabiy ijodiga bag‘ishlangan. Muallif tadqiqot obyekti sifatida forsiy “Devon”ning O‘zR FA Sharqshunoslik institutidagi № 7766 inventar raqamli qo‘lyozma nusxasini olgan. Dissertatsiya vazifalaridan biri Nodirabegimning forsiy g‘azallari matnining ishonchliligini aniqlash bo‘lgan. Biroq Abdulazizova bunda “Devon”ning nashr xatolarini aniqlab, to‘g‘rilashni maqsad qilmagan. U ko‘proq Maknunaning tarjimayi holi, adabiy merosi, badiiy mahorati, g‘azallar mavzusi, shoira uslubining Sa’diy–Hofiz–Bedil an’analari bilan aloqalarini tadqiq etgan [18: B. 15–196]. Demak, shu paytgacha na o‘zbek, na tojikistonlik olimlar tomonidan Nodirabegimning forsiy “Devon”i nashrlaridagi matniy nuqsonlarni bevosita uning qo‘lyozmalari bilan qiyoslab o‘rganish bo‘yicha yirik ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan.

Mazkur maqolani yozishda qiyosiy-matnshunoslik tahlili va tavsifiy usullar qo‘llanildi. Fors tilidagi jumlalarning tarjimasini keltirishda sun’iy intellektdan (ChatGPT) foydalanildi.

MUHOKAMA

Nodirabegimning fors tilidagi “Devon”ining “Debocha”si O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondidagi № 7766 inventar raqamli qo‘lyozmadagina saqlanib qolgan, boshqa nusxalarda u uchramaydi [1: 1b–4a-var.]. Uning tabdili birgina 1963-yilgi nashrda nisbatan to‘liqroq berilgan, qolgan nashrlarda undan parchalar keltirilgan [9: B. 243–245; 10: B. 7; 11: B. 5–6; 12: B. 4–5]. “Debocha” musulmon an’analariga asosan basmala bilan boshlangan [1: 1b-var.]:

بسم الله الرحمن الرحيم

Basmalaning tabdili: Bismillohi-r-Rahmoni-r-Rahim.

So‘zlarning ma’nosi: Rahmli va Mehribon Alloh Taolo nomi bilan boshlayman.

“Debocha”ning boshidagi basmala “Devon”ning hech bir nashrida keltirilmagan. Sovet davridagi nashrlarda bu ateistik tuzum senzurasi tufayli matnga kiritilmagan ko‘rinadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach amalga oshirilgan 2004-yilgi nashrda esa basmala noshirning xatosi sabab tushib qolgan bo‘lishi mumkin.

Kotib basmaladan keyin Alloh Taologa hamdu sanolar aytadi:

ملك المضامين بديع وديوان است ومزيّن مشرّز او بدل بی ارادت و فطرت خامه از بتحريك كاينات مجموعه كه را مثال بی عليم آن غايت بی وحمد نهايت بی سپاس گردانيد مبين و مرتب او يزل لم مشيت و ابدا ارقام از برقمی ملكوت و [1: 1b-var.].

Tabdil: Siposi be nihoyat va hamdi beg‘oyat on alimi bemisolro ki majmuai mashhudai koinot ba tahriki az xomai fitrat va irodati bebadali o‘ musharraz va muzayyan ast va devoni badi’ulmazomini mulku malakut ba raqame az arqomi ibdo’

va mashiyati lamyazali o‘ murattab va mubayyan gardonid.

Tarjima: Cheksiz shukr va beadad hamd o‘sha tengsiz Bilguvchi Alloh Taologa bo‘lsinki, ko‘zga ko‘rinayotgan koinot majmuasi Uning fitrat va benazir irodasi qalamining bir harakati bilan naqshlanib, bezatilgandir; U mulk va malakutning go‘zal mazmunlarga boy devonini esa zavol bilmas irodasi va yaratish raqamlaridan bir raqam bilan tartibga solib, ravshan qildi.

Bu parchaning tabdili birgina 1963-yilgi nashrda uchraydi, keyingi nashrlardan u tushirib qoldirilgan [9: B. 243]. Biroq bu tabdilda bir qancha xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Xususan, ارقام از برقمی birikmasi “ba raqami az arqome” shaklida noto‘g‘ri tabdil qilingan. برقمی so‘zidagi yoy harfi orqali “bir raqam, bitta raqam” ma’nosi tushunilishi kerak. Biroq tabdilda qisqa “i” yozilgan, bunda ma’no g‘alizlashib qoladi. So‘ng esa ارقام so‘zi “arqome” deb berilgan. Natijada so‘zning so‘nggida cho‘ziq yoy harfi bordek tuyuladi. Aslida bu so‘z birikmasi “ba raqame az arqomi” — “raqamlaridan bir raqam” ko‘rinishida yozilsa, grammatik jihatdan ham, ma’no tomonidan ham to‘g‘ri bo‘ladi.

Shuningdek, nashrda jumla so‘nggidagi fe’l-kesim “gardid” deb tabdil qilingan. Qo‘lyozmada esa “gardonid” yozilgan. Shu so‘z gapga grammatik va mazmuniy jihatdan to‘g‘ri keladi. Ularning asosiy farqiga kelsak, “gardid” “bo‘ldi, aylandi” deb tarjima qilinadigan o‘timsiz fe’l. “Gardonid” esa “qildi, aylantirdi, qandaydir holga keltirdi” ma’nolarini anglatuvchi o‘timli fe’l. Jumlani “... devoni badi’ulmazomini mulku malakut ... murattab va mubayyan gardonid” deb o‘qilsa, “... mulku malakutning go‘zal mazmunli devonini tartibli va ravshan qildi” degan ma’no chiqadi. Agar “... murattab va mubayyan gardid” desak, jumla “... devon tartibli va ravshan bo‘ldi” ko‘rinishida tushuniladi va “devon” so‘zi gapning egasiga aylanadi. Shuning uchun qo‘lyozmada berilgan “gardonid” so‘zi matn mazmuniga mos hamda grammatik jihatdan to‘g‘ri va mantiqiydir.

“Debocha”ning davomida hamd mazmunidagi ikki bayt keladi:

سبقی او بیان درس ز دهر علوم
ورقی صحفه چرخ نه نقطه نجوم
جاویدست عمر تعبیر که خلد حیات
رقمی کمین او احیا زبخشش بود [1: 1b–2a-var.].

Tabdil: Ulumi dahr zi darsi bayoni o‘ sabaqe,
Nujumi nuqtai no‘h charx safhai varaqe.
Hayoti xuld ki ta’biri umri jovid ast,
Buvad zi baxshishi ehyoi o‘ kamin raqame.

Tarjima: Dunyodagi barcha ilmlar Uning bayoni darsidan bir saboqdir; yulduzlar bir nuqta, to‘qqiz falak esa bir varaq sahifasidir.

Mangu umr deb ataluvchi abadiy hayotning o‘zi ham Uning hayot baxsh etish ehsonidan kichik bir belgidir.

Bu baytlarning tabdili ham 1963-yilgi nashrdagina uchraydi, keyingi nashrlarga ular kiritilmagan [9: B. 243].

“Debocha”da hamd qismidan so‘ng Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga durudu salovotlar yo‘llanadi:

وافر دعوت و ساخت عام انام کافه بر علت بی رحمت مائده او الجود کثیر وجود ارسال برکت که را محمود عاقبت رسول آن ورود خجسته تحیات و معدود نا درود
فرمود اتمام و تصحیح را خلایق ناقصه ادیان و باطله مذاهب وأقوال افعال بدستیاری .او الخاصیت. [1: 2a-var.].

Tabdili: Durudi noma’dud va tahiyyoti xujastavurud on rasuli oqibatmahmudro ki barakati irsoli vujudi kasirul-judi o‘ moidai rahmati beillat bar koffai anom om soxt va da’vati vofirul-xosiyati o‘ ba dastyoriyi af’olu aqvol mazohibi botila va adyoni noqisai xaloyiqro tas’heh va itmom farmud.

Tarjima: Cheksiz durudlar va muborak tahiyyatlar oqibati maqtovga sazovor bo‘lgan o‘sha Rasulga bo‘lsinki, uning saxovatga to‘la vujudi yuborilishining barakati barcha insonlarga besabab rahmat dasturxonini umumiy qildi; uning serxosiyat da’vati esa amallar va so‘zlar yordamida xalqlarning botil mazhablari va nuqsonli dinlarini tuzatib, takomilga yetkazdi.

“Debocha”ning na’t qismi tabdili ham 1963-yilgi nashrdagina berilgan, boshqa nashrlarda u yo‘q [9: B. 243]. Biroq bu tabdilda bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, qo‘lyozmada aniq yozilgan دعوت–da’vat kalimasi “da’vot” ko‘rinishida noto‘g‘ri tabdil qilingan. Shuningdek, jumla so‘ngidagi gap “da’voti vofirul-xosiyati o‘ ba dastyorii af’ol va aqvoli mazohibi botila va adyoni noqisai xaloyiqro tas’heh va itmom farmud” shaklida noto‘g‘ri berilgan. Bu holatda “af’ol va aqvol” “mazohibi botila”ga izofa bo‘lib qoladi. Natijada ma’no butunlay buzilib ketadi: “uning serxosiyat da’vati esa xalqlarni botil mazhablar va nuqsonli dinlarning amallari va so‘zlari yordamida tuzatib, takomilga yetkazdi”. Mazmunni to‘g‘ri anglash uchun bu gapni “da’vati vofirul-xosiyati o‘ ba dastyoriyi af’olu aqvol mazohibi botila va adyoni noqisai xaloyiqro tas’heh va itmom farmud” deb o‘qish kerak.

Kotib na’t qismi davomida Payg‘ambarimizga atab yozilgan ikki baytni keltiradi:

سراست دو هر کابروی عربی محمد
او سر بر خاك نیست درش خاک که کسی.
ست مضمونی کمال و یقین بدرسگاه
او دفتر ز دین اکمال نسخه رموز [1: 2a-var.].

Tabdil:
Muhammadi arabiy k-obro‘yi har du sarost,
Kase, ki xoki darash nest, xok bar sari o‘.
Ba darsgohi yaqinu kamol mazmunest,
Rumuzi nusxai ikmoli din zi daftari o‘.

Tarjima: Arabiy Muhammad har ikki dunyoning obro‘sidir; Uning dargohi xoki bo‘lish sharafiga ega bo‘lmaganning holiga voy. Haqiqat va kamolot maktabida u bosh mazmundir; Dinni kamolga yetkazishning barcha sirlari uning ta’limotida mujassamdir.

Bu baytlardan so‘ng kotib Payg‘ambarimizning oilalariga va sahobalariga ham salom yo‘llaydi:

بالتمام او کرام واصحاب عظام وآل [1: 2a-var.].

Tabdil:
Va oli izom va as’hobi kiromi o‘ bit-tamom.

Tarjima: Uning (Muhammad alayhissalomning) ulug‘ oilasi va sahobalariga ham salom bo‘lsin!

Shu yergacha bo‘lgan matn faqatgina 1963-yilgi nashrda berilgan, boshqa nashrlarda yo‘q [9: B. 243]. “Debocha”ning hamd va na’t qismi diniy mazmundaligi uchun ham ko‘p nashrlardan olib tashlangan bo‘lishi mumkin.

Hamd va na’t qismidan so‘ng devonni tuzish sababi ko‘rsatila boshlangan:

تردد در عالی فطرت که است دلنشین معانی و رنگین مضامین ادای شغل احوال ترین خجسته و خصال نیکوترین که نماند پوشیده الابصار اولو ضمایر بر بعد اما ست ناچار او.

پیچد هنر سعی با نه سازد هوس کسب با نه

پیچد بیشتر بمعنی افتاد رسا چون طبیعت [1: 2b-var.].

Tabdil: Ammo ba’d bar zamoiri ulul-absor po‘shida namonad ki nekutarini xisol va xujastatarini ahvol shug‘li adoyi mazomini rangin va maoniyi dilnishin ast, ki fitrati oliy dar taraddudi o‘ nochor ast.

Na bo kasbi havas sozad, na bo sa’yi hunar pechad,

Tabiat chun raso aftad ba ma’niy beshtar pechad.

Tarjima: Ammo bundan so‘ng, aql egalarining zehnidan pinhon qolmasinki, eng yaxshi xislatlar va eng muborak holatlardan biri — rangin mazmunlar va dilnishin ma’nolarni ifoda etish bilan mashg‘ul bo‘lishdir; oliy fitrat esa bunday ishga intilishdan o‘zini tiya olmaydi.

(Baytning tarjimasi:) Bu qobiliyat na havas bilan hosil bo‘ladi, na mehnatu hunar bilan zo‘rlab egallanadi.

Tab’ yetuk bo‘lsa, u o‘z-o‘zidan ma’nolar olamiga ko‘proq intiladi.

Bu parcha 1963- va 1971-yilgi nashrlarda bor va to‘g‘ri tabdil qilingan [9: B. 243–244; 11: B. 5]. Lekin u 1967- va 2004-yilgi nashrlarda yo‘q. Uning tushib qolishi noshirlarning aybi tufayli bo‘lgan ko‘rinadi.

So‘ng Nodirabegimning umr yo‘ldoshi Umarxon to‘g‘risidagi qaydlar keladi:

پادشاه عمر محمد سید المسلمین امیر سلطنت طارم تابنده کوکب اقبال و حشمت فلك نیّر جلال و عزت کشور آفتاب اقتدار جمشید خاقان کامگار شهریار سبب ازین تصنیف و انشا ارجمند طبع از نمود پذیر دل اشعارهای مصروف را گرانمایه عمر کشورستانی گیری اقلیم اقتدار فراغ از پس دولت فرجام خجسته ایام در عصری مرقده نوّر تازه همه را وجودش نهال قضا صرصر آوان ان در ناگاه نه زبان مقدور آن تصنیف تو نه ببیان حاجت ان تعریف کردانید منتشر و مشهور زمانه اکناف و باطراف کرده دیوان گردانید ماتم زار لاله خونین اشک از را ایام عرصه نموده ناپدید و معدوم نیستی اباد خزان در رعنای و کی [1: 2b–3a-var.].

Tabdil: Az in sabab shahriyori komkor, xoqoni Jamshidiqtidor, oftobi kishvari izzatu jalol, nayyiri falaki hashmatu iqbol, kavkabi tobandai torami saltanat, Amir al-muslimin Sayyid Muhammad Umar podshoh, nuvvira marqaduhu asre dar ayyomi xujasta farjomi davlat pas az farog‘i iqtidori iqlimgiriy, kishvarsitoniy, umri garonmoyaro masrufi ash’orhoi dilpazir namud, az tab’i arjumand insho va tasnifi devon karda ba atrofu aknofi zamona mashhur va muntashir gardonid. Ta’rifi on hojat ba bayon na, va tavsifi on maqduri zabon na. Nogoh dar on ovon sarsari qazo niholi vujudashro bo hama tozagiy va ra’noyi dar xazonobodi nestiy ma’dum va nopadid namuda arsai ayyomro az ashki xunin lolazori motam gardonid.

Tarjima: Shu sababdan baxtli shahriyor, Jamsheddek qudratli xoqon, izzat va jalol mamlakatining quyoshi, hashamat va iqbol falagining nurli yulduzi, saltanat toqining porloq kavkabi, musulmonlar amiri Sayyid Muhammad Umar podshoh davlatining muborak ayyomlarida, iqlimlarni egallash va mamlakatlarni fath etish ishlaridan forig‘ bo‘lgach, qimmatli umrini dilpazir she’rlarga sarf etib, arjumand tab’idan devon tuzdi. U devon zamonaning atrofu aknofiga mashhur bo‘lib tarqaldi. Uni ta’riflashga bayon hojat emas, tavsiflashga esa til ojiz. Nogoh o‘sha paytda qazo sarsari uning vujudi niholini barcha tozaligi va ra’noligi bilan yo‘qlik xazonobodiga mahv etib, ayyom maydonini qonli ko‘z yoshlaridan bo‘lgan motam lolazoriga aylantirdi.

Bu parcha tabdili 1963- va 1971-yilgi nashrlardagina bor, keyingi ikki nashrga kiritilmagan. Lekin yuqoridagi nashrlarda anchagina matniy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilgan [9: B. 243–244; 11: B. 5]. Jumladan, 1963-yilgi nashrda arab tilidagi نیّر–nayyir so‘zi “nayir”, المسلمین امیر–amir al-muslimin “amiril-muslimni”, سید–Sayyid esa “said” deb xato tabdil qilingan. Natijada nashr matnida ma’no o‘zgarishi kuzatilgan. Marhum Umarxon uchun qilingan مرقده نوّر–nuvvira marqaduhu (“uning qabri yorishsin”) duosi “navvara marqadahu” tarzida yanglish o‘girilgan. Oqibatda “uning qabrini yoritsin” ma’nosi kelib chiqib, gap egasiz bo‘lib qolgan. Shuningdek, qo‘lyozmadagi گیری اقلیم اقتدار–iqtidori iqlimgiriy so‘z birikmasi “iqtidoriy iqlimgiriy” shaklida o‘zgartirib yuborilgan. Natijada “iqtidor” so‘ziga asl matnda yo‘q cho‘ziq yoy harfi qo‘shib qo‘yilgan. Qo‘lyozmada مصروف نمود پذیر دل اشعارهای–masrufi ash’orhoi dilpazir namud deb yozilgan gap tabdilda “masrufi ash’orhoi dilpazir namuda” deb shakl va ma’no jihatidan biroz o‘zgartirib berilgan.

1971-yilgi nashrda esa “nayyiri falaki hashmatu iqbol, kavkabi tobandai torami saltanat, amir al-muslimin” va “asre dar ayyomi xujasta farjomi davlat” so‘z birikmalari matndan butunlay tushib qolgan. Bunda ham “nuvvira marqaduhu” duosi 1963-yilgi nashrdagidek yozilgan. Ko‘rinadiki, noshirlar asosan arab tilidagi so‘zlar imlosida xatoliklarga yo‘l qo‘yishgan. Demak, ular arab tilini yaxshi bilishmagan.

Keyingi jumlada mazkur devonni tuzishning aniq sababi ko‘rsatilgan:

نسب محیط گوهر پادشاهی و حشمت خیمهٔ پرورد سایه پناهی سلطنت و عفت پردهٔ نشین حجله او محبوبهٔ دلپزیر وعفیفهٔ او مرغوبهٔ مستورهٔ منکوحهٔ مصیبت درین خصلت و حمیده اوصاف خردمند مرد هزار از بهتر ضعیفهٔ دلپزیر اشعار مشق و ادراك در عام و خاص مسلمهٔ فقراپروری شیوهٔ در اقبال و عزت صدف نایاب در کمال و الکلام خلاصهٔ نمودیم مختصر بود دور ادب از گفتن سخن بسیار ازین عفت حرم مستورهٔ آن از نمکخواررا غلام این لیکن بود بیرون شمار از و افزون حد از او نیکوی های آن او عالی بفرمان کردیده جمع بسیار غزلهای اوقات اندک در میکرد رنگین شعرهای مشق عالی طبع از اوقات خوشی بحسب گاهی علا و عزت پردهٔ مخدّرهٔ النسا تاج آن شد نموده جمع مجموعه درین اشعاررا [1: 3a–3b-var.].

Tabdil: Dar in musibat mankuhai masturai marg‘ubai o‘ va afifai dilpaziri mahbubai o‘, hujlanishini pardai iffat va saltanatpanohiy soyaparvardi xaymai hashmatu podshohiy, gavhari muhiti nasabu kamol, durri noyobi sadafi izzatu iqbol, dar shevai fuqaroparvariy musallamai xosu om, dar idrok va mashqi ash’ori dilpazir zaifai behtar az hazor mardi xiradmand; avsofi hamida va xislathoi neko‘yi o‘ az had afzun va az shumor berun bud. Lekin in g‘ulomi namakxorro, az on masturai harami iffat az in bisyor suxan guftan az adab dur bud, muxtasar namudem. Xulosatul-kalom on toju-n-niso muxaddarai pardai izzatu ulo, gohe ba hasabi xushiyi avqot az tab’i oliy mashqi she’rhoi rangin mekard, dar andak avqot g‘azalhoi bisyor jam’ gardida, ba farmoni oliyi o‘ on ash’orro dar in majmua jam’ namuda shud.

Tarjima: Bu musibat chog‘ida uning pokdomon va sevimli, iffat pardasi hujrasida o‘tiruvchi umr yo‘ldoshi, saltanatpanohlik, ulug‘vorlik va podshohlik chodirining soyaboni, nasab va kamolot ummonining gavhari, izzat va iqbol

ISSN 3060-5059 (Online)

sadafining noyob durdonasi, fuqaroparvarlik borasidagi fazilati xosu om orasida e'tirof etilgan, idrok va dilpazir she'rlar mashqida esa ming nafar xiradmand erkakdan afzal, maqtovga sazovor sifatlari va ezgu xislatlari haddan ziyod, sanoqdan tashqari bir ayol edi.

Lekin bu tuz haqini biluvchi, ya'ni sadoqatli xizmatkor uchun u iffat haramining pardanishini to'g'risida bundan ortiq so'z yuritish odobdan yiroq bo'lgani sababli, so'zni muxtasar qildik.

Xullasi kalom, ayollar toji bo'lgan, izzat va yuksaklik pardasidagi o'sha muhtarama xonim ba'zan vaqti xush–kayfiyati yaxshi bo'lgan chog'larda o'zining oliy tab'idan rangin she'rlar mashq qilardi. Qisqa vaqt ichida juda ko'p g'azallar jam bo'ldi. Uning oliy farmoniga binoan mazkur she'rlar ushbu majmuaga to'plandi.

Mazkur parcha 2004-yilgidan tashqari qolgan uchala nashrda bor [9: B.244; 10: B.7; 11: B.5–6]. Ularning har birida matniy nuqsonlar uchraydi. Xususan, parchadagi حجله نشین–hujlanishin ("uyda o'tiruvchi, iffatli" ma'nosida) so'zi 1963- va 1971-yilgi nashrlarda "hijlanishin", 1967-yilgi nashrda "hajlanishin" shaklida noto'g'ri tabdil qilingan. Bunda ma'no butunlay o'zgartirib ketgan, arab yozuvidagi asl matn berilmagani sabab uni "hijolatda o'tiruvchi" deb tushunish mumkin. Shuningdek, uchala nashrda ham asl matndagi "zaifai behtar" so'z birikmasi orasiga "bud" so'zi qo'shib qo'yilgan. Xolbuki, qo'lyozmada bu so'z yo'q, u ma'noga ham to'g'ri kelmaydi. Bu parchadagi "musibat" so'zi 1967-yilgi nashrda "musbat" deb ma'no o'zgarib ketadigan darajada xato yozilgan. Shuningdek, mazkur nashrda parchadagi "tab'i oliy mashqi she'rhoi rangin mekard, dar andak avqot" qismi butunlay tashlab ketilgan. Ehtimol, bu noshirning e'tiborsizligi sabab yuz bergan bo'lishi mumkin.

"Debocha" davomida Nodirabegim madh etilgan she'r uchraydi:

اساس عزت و فضل و شرف مرهون بنیادش
سراپا معنی لطف نکوی بوده ایجادش
باندك روز حاصل کرد این فضل معانی را
نمیدانم چه خصلت بود در طبع خدادادش
چو میخواهی که از فضل و کمالش با خبر باشی
تأمل ساز بر مضمون شعر طبع آزادش [1: 3b–4a-var.].

Tabdil: Asosi izzatu fazlu sharaf marhuni bunyodash,
Saropo ma'niyi lutfi nako'yi buda ejodash.
Ba andak ro'z hosil kard in fazli maoniyro,
Namedonam chi xislat bud dar tab'i xudododash.
Chu mexohiy, ki az fazlu kamolash boxabar boshiy,
Taammul soz bar mazmuni she'ri tab'i ozodash.

Tarjima: Izzat, fazilat va sharaf go'yo uning vujudi bilan qadr topgan; Uning butun borlig'i esa lutfu ezgulikning timsoli edi.

U qisqa vaqt ichida bu ma'nolarning bu fazilatini–yuksakligini hosil qildi; Uning Xudo ato etgan tab'ida qanday xislat bor edi – bilmayman.

Agar uning fazlu kamolidan xabardor bo'lmoqchi bo'lsang, Ozod tab'idan chiqqan she'r mazmuniga diqqat bilan nazar sol.

Bu baytlar 1967-yilgidan tashqari boshqa nashrlarda to'liq berilgan [9: B.244; 11: B.6; 12: B.4–5]. Shunga qaramay, uchala nashrda ham bir xil xatolikka yo'l qo'yilgan. Ikkinchi baytdagi فضل معانی را birikmasi qo'lyozmadagi asl matnga xilof ravishda nashrda "fazlu maoniyro" deb yozilgan. Bunda qo'lyozmada yo'q bo'lgan vov harfi ikki so'z orasiga qo'yilishi tufayli ma'no qisman o'zgargan: "U qisqa vaqt ichida ma'nolarning bu fazilatini–yuksakligini hosil qildi" mazmunidagi bayt birgina ortiqcha harf sabab "U qisqa vaqt ichida bu fazilat va ma'nolarni hosil qildi" shaklida tushuniladigan bo'lib qoladi. Biroq bu juda jiddiy xato emas.

Shundan so'ng kotib shoiraning Maknuna taxallusini olish sababini bayon qiladi:

بصواب دید غلامان معنی پسند و خادمان فطرت بلند تخلص آن گوهر مسطوره صدف عفت و جهان پناهی را مکنونه مقرر و معین گردید [1: 4a-var.].

Tabdil: Ba savobdidi g'ulomoni ma'niypisand va xodimoni fitrat baland, taxallusi on gavhari masturai sadafi iffat va chahonpanohiyro Maknuna muqarrar va muayyan gardid.

Tarjima: Ma'niypisand g'ulomlar va yuksak fitratli xizmatkorlarning maslahati bilan jahonpanohlik va iffat sadafidagi o'sha pinhon gavharning taxallusi "Maknuna" deb belgilandi.

Bu jumla 2004-yilgidan tashqari qolgan uchala nashrda keltirilgan [9: B.245; 10: B.7; 11: B.6]. Uchala tabdilda ham matniy nuqsonlar uchramaydi.

"Debocha" so'ngida ikki baytlik she'r orqali Nodirabegim yana bir bor madh etiladi:

این نام شد بشعر نشان بیان او
آری تخلصی ست موافق بشأن او
اقبال یافت فهم معانی و فطرتش
رونق گرفت شعر بدور و زمان او [1: 4a-var.] .

Tabdil: In nom shud ba she'r nishoni bayoni o',
Ore, taxallusest muvofiq ba shoni o'.
Iqbol yoft fahmi maoniy zi fitratash,
Ravnaq girift she'r ba davru zamoni o'.

Tarjima: Bu nom uning she'rlarida bayon belgisiga aylandi;
Darhaqiqat, bu uning sha'niga munosib taxallusdir.
Uning fitrati bilan ma'nolarni anglash yuksaldi,
Uning zamonida she'riyat ravnaq topdi.

 ISSN 3060-5059 (Online)

Mazkur ikki bayt 1963-, 1967- va 1971-yilgi nashrlarda to‘liq holatda, 2004-yilgida esa birinchi bayt tushirib qoldirilib ikkinchi baytning o‘zigina berilgan [9: B.245; 10: B.7; 11: B.6; 12: B.5]. To‘rtala tabdilda ham matniy nuqsonlar yo‘q.

“Debocha”ni kotib ushbu duo bilan tugatadi:

تمت الديباجة بعون الله الملك الوهاب، برحمتك يا أرحم الراحمين [1: 4a-var.] .

Tabdil: Tammat ad-debocha bi-’avnillohi-l-Maliki-l-Vahhob, bi-rahmatika, yo arhama-r-rohimiyn!

Tarjima: Vahhob va Malik Allohning yordami bilan debocha nihoyasiga yetdi. Ey rahm qiluvchilarning eng rahmlisi, rahmating bilan [bizga marhamat qil]!

Bu duo faqatgina №7766 inventar raqamli qo‘lyozmada bor, biroq to‘rtala nashrning hech birida keltirilmagan.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot natijasida xulosa qilib aytish mumkinki, shoira Nodirabegimning fors tilidagi she’rlardan iborat “Devon”i hozirgacha to‘liq va mukammal holatda nashr qilinmagan. Turli yillarda amalga oshirilgan to‘rtta nashrda ko‘pgina nuqsonlar va xatolar mavjudligi birgina “Debocha” qismining matnshunoslik tahlili orqali isbotlandi. Nashrlardagi tushirib qoldirishlarning ayrimlariga (ayniqsa, diniy mazmundagi matnlarda) sobiq sovet tuzumining senzurasi, ba’zilariga esa noshirlarning e’tiborsizligi, nashrga jiddiy yondashmaganligi sabab ekanligi aniqlandi. Shuningdek, noshirlar arab tilini yaxshi bilmasligi tufayli “Devon” matnidagi asli bu tilga mansub anchagina so‘zlar xato tabdil qilinganligi tadqiqotda tahlil qilib berildi. Bu omillar “Devon” qo‘lyozmalarini uning nashrlari bilan qiyoslagan holda matnshunoslik nuqtayi nazaridan puxta tadqiq etib, yagona mukammal nashrni amalga oshirish zarurati borligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. مكنونه – نادره. مكنونه ديوان Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №7766. – 132 varaq.
2. نادره. ديوان Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №313. – 194 varaq.
3. نادره. ديوان Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №4182/1. – 1a–154b varaqlar.
4. مكنونه غزليات. Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №2090. – 23 varaq.
5. بياض. Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №660. – 239 varaq.
6. بياض. Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №314. – 244 varaq.
7. بياض. Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №1473. – 100 varaq.
8. بياض. Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №1502. – 147 varaq.
9. Nodira. *Devon.* – Dushanbe, 1967. – 364 b.
10. Nodira. *Asarlar : ikki jildlik.* – II jild. *Devon.* – I kitob. – Toshkent, 1971. – 488 b.
11. Nodira–Komila. *Devon.* – Ikkinchi kitob. – Toshkent, 2004. – 208 b.
12. Кадырова М. *Надира : очерки жизни и творчества* / М. Кадырова. – Ташкент : Фан, 1967. – 188 с.
13. Rajabova M. Nodira “Devon”i nashrlariga doir mulohazalar / M. Rajabova, M. Nematullayeva // *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti.* – 2023. – № 4 (98). – B. 285–289.
14. Rajabova M. B. Matn va nashr muammolari (Nodira “Devon”i misolida) / M. B. Rajabova // *Oltin bitiglar.* – 2025. – № 2. – B. 17–34.
15. Сахибова О. Макнунаи Нодира / О. Сахибова, У. Каримов // *Таджикская литература во второй половине XVIII и первой половине XIX вв.* – Кн. 2. – Душанбе : Дониш, 1989. – 242 с.
16. Ваххобзода Д. А. *Источники и идейно-художественные особенности творчества таджикских поэтесс XIX века* : автореф. дис. ... канд. филол. наук / Д. А. Ваххобзода. – Худжанд, 2008. – 26 с.
17. Абдулазизова З. С. *Макнуна и её место в литературном круге Кокандского ханства (первая половина XIX века)* : дис. ... канд. филол. наук / З. С. Абдулазизова. – Душанбе, 2013. – 205 с.